XALQ DEPUTATLARI SURXONDARYO VILOYATI KENGASHINING QARORI

Termiz shahri, At-Termiziy ko‘chasi 1-uy. 190100, tel: (76) 224-12-30, (76) 224-03-94), (76) 221-74-81)

2023 - yil 23 - oktabr VI-78-182-8-0-K/23 Surxondaryo viloyati hokimligi

Angor tumanidagi “A.Navoiy”, “Angor”, “Dehqonbirlashuv”, “Dehqonittifoq”, “Do‘stlik”, “Y.Oxunboboyev” va “Ozod Buxoro” aholi punktlari nomlarini o‘zgartirish to‘g‘risida

“Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuni va O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2012-yil 16-oktabrdagi 295-son “Geografik obyektlarning nomlari to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonuniga muvofiq geografik obyektlarning nomlari sohasidagi ishlarni tartibga solish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori ijrosini ta’minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6-moddasiga asosan xalq deputatlari viloyat Kengashi qaror qiladi:

1. Geografik obyektlarni nomlash va qayta nomlash masalalari bo‘yicha viloyat komissiyasining “Geografik obyektlarga nom berish yoki ularni qayta nomlash to‘g‘risidagi takliflarning qonun hujjatlari talablariga muvofiqligi haqida 2022-yil 14-apreldagi 01-14-518-sonli Ekspertiza xulosasiga ko‘ra Angor tumanidagi 6 ta, 2022-yil 4-oktabrdagi 00725-son Ekspertiza xulosasiga ko‘ra 1 ta aholi punktlari nomlarini qayta nomlash bo‘yicha qonunga muvofiqlashtirilgan nomlarni xalq deputatlari viloyat Kengashi tasdig‘iga kiritish to‘g‘risida” xulosasi ma’qullansin.

2. Angor tumanida nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining ro‘yxati ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Viloyat Statistika boshqarmasi (U.Alimov) nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining elektron bazasini shakllantirish bilan bog‘liq barcha tadbirlarni amalga oshirsin.

4. Viloyat Qurilish va uy-joy kommunal xo‘jaligi bosh boshqarmasi hududlarda nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarini yangi nomlari yozilgan ko‘rsatkich va belgilar, peshlavhalarni zamonaviy dizayn asosida bosqichma-bosqich o‘rnatilishini ta’minlasin.

5. Viloyat hokimligi Axborot xizmati (M.Davlatov), viloyat teleradiokompaniyasi

(B.Mingboyev), “Ishonch” televideniyesi (A.Qodirov), viloyat Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar boshqarmasi (Z.To‘rayev), “Surxon tongi” va “Заря Сурхана” gazetalari birlashgan tahririyati (S.Norqobilov)ga mazkur masala yuzasidan amalga oshirilgan ishlarni ommaviy axborot vositalari, ijtimoiy tarmoqlar hamda mahalliy gazetalar orqali keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari Surxondaryo viloyati Kengashining mahalliy budjet, iqtisodiy islohotlarni amalga oshirish, turizm, investitsiyalar va tadbirkorlikni rivojlantirish masalalari bo‘yicha doimiy komissiyasi (I.Yoqubov) zimmasiga yuklatilsin.

7. Ushbu qaror rasman elon qilingan kundan kuchga kiradi.

Sessiya raisi **S.B.Abduraimov**

Xalq deputatlari Surxondaryo viloyat
Kengashining
2023-yil 23-oktabrdagi
VI-78-182-8-0-K/23-son qaroriga
1-ilova

Angor tumanida nomlari o‘zgartirilgan aholi punktlarining

RO‘YXATI

T/r	Geografik obyektning turi	Joylashgan joyi	Geografik obyektning amaldagi nomi	Geografik obyektning o‘zgartirilgan nomi
1	Aholi punkti	“Navbahor” MFY	A.Navoiy	Navbahor
2	Aholi punkti	“Qadimiy Angor” MFY	Angor	Qadimiy Angor
3	Aholi punkti	“Qoraqir” MFY	Dehqonbirlashuv	Qoraqir
4	Aholi punkti	“Yangi hayot” MFY	Dehqonittifoq	Yangi hayot
5	Aholi punkti	“Sharqguli” MFY	Do‘stlik	Sharqguli
6	Aholi punkti	“Do‘stlik” MFY	Y.Oxunboboyev	Do‘stlik
7	Aholi punkti	“Ulug‘bek” va “Farovon” MFY	Ozod Buxoro	Onadiyor